

O'QUVCHILAR PORTFELI ASOSIDA KOMPETENSIYALAR MONITORING TIZIMI

Muzaffarova Zebiniso Hikmatullo qizi

Osiyo xalqaro universiteti

Pedagogika yo'nalishi 1- bosqich magistri.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18255120>

Annotatsiya. Ushbu tadqiqot ishida o'quvchilar portfeli asosida kompetensiyalarni monitoring qilish tizimi o'rganiladi. Portfel o'quvchining individual rivojlanish dinamikasini, yutuqlari va muammolarini muntazam qayd etib boruvchi shaxsiy hujjat sifatida talqin etiladi.

Tadqiqotda kompetensiyalarning shakllanish jarayonini baholash, portfel materiallarini tahlil qilish, o'quvchilarning o'z-o'zini baholashi hamda o'qituvchi kuzatuvlari asosida monitoring mexanizmlari ishlab chiqiladi. Natijalar zamonaviy ta'limda portfelning ahamiyatini oshirish, ta'lim sifatini monitoring qilishning samaradorligini ta'minlashga qaratilgan tavsiyalar bilan boyitilgan.

Kalit so'zlar: o'quvchilar portfeli, kompetensiyalar, monitoring tizimi, baholash, raqamli portfel, o'quv jarayoni, o'quvchilar yutuqlari, refleksiya, ta'lim sifatini baholash, kompetensiyaga asoslangan yondashuv.

СИСТЕМА МОНИТОРИНГА КОМПЕТЕНЦИЙ НА ОСНОВЕ ПОРТФЕЛЯ УЧАЩИХСЯ

Аннотация. В данной исследовательской работе изучается система мониторинга компетенций учащихся на основе портфолио. Портфолио трактуется как личный документ учащегося, отражающий динамику его индивидуального развития, достижения и существующие проблемы. В исследовании разрабатываются механизмы мониторинга формирования компетенций через анализ материалов портфолио, самооценку учащихся и педагогические наблюдения. Полученные результаты содержат рекомендации, направленные на повышение значимости портфолио в современном образовании и улучшение эффективности мониторинга качества обучения.

Ключевые слова: портфель учащихся, компетенции, система мониторинга, оценивание, цифрово портфель, учебный процесс, достижения учащихся рефлексия, оценка качества образования, компетентностный подход.

COMPETENCE MONITORING SYSTEM BASED ON STUDENT'S PORTFOLIO

Abstract. This research explores a competency monitoring system based on student portfolios. The portfolio is viewed as a personal document that records the learner's developmental progress, achievements, and challenges. The study develops mechanisms for monitoring competency formation through analysis of portfolio materials, student self-assessment, and teacher observations. The findings include recommendations aimed at enhancing the role of portfolios in modern education and improving the effectiveness of learning quality monitoring.

Keywords: student portfolio, competencies, monitoring system, assessment, digital portfolio, learning process, student achievements, reflection, quality assessment in education, competency – based approach.

Kirish.

Bugungi globallashuv sharoitida ta'lim jarayonida o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini shaxsiy rivojlanish, kompetensiyalar shakllanishi hamda ta'lim sifatini oshirish nuqtayi nazaridan tizimli ravishda monitoring qilish zarurati tobora kuchayib bormoqda.

Kompetensiyaga asoslangan yondashuv ta'lim mazmunining yangilanishini, o'quvchilar faoliyatini natijaviylikka, yo'naltirishni va ularning o'z-o'zini baholash, refleksiya qilish kabi metako'nikmalarini shakllantirishni taqazo etadi.

Bunday yondashuvni amaliyotga samarali joriy etish o'quvchilarning individual rivojlanish dinamikasini muntazam kuzatish va qayd etishni talab qiladi. Ta'lim tizimida keng qo'llanilayotgan o'quvchilar portfeli texnologiyasi o'quvchining o'quv faoliyati davomida erishgan yutuqlari, kreativ ishlari, loyihalari, kompetensiyalar darajasi va o'z ustida ishlash jarayonini aks ettiruvchi muhim pedagogik vosita sifatida e'tirof etiladi.

Portfel o'quvchi rivojlanishini aniq dalillar asosida baholash, individual ta'lim y o'lini shakllantirish, pedagogik jarayonni tahliliy yondashuv asosida tashkil etish imkonini beradi. Shu bilan birga, portfel asosida monitoring tizimini yo'lga qo'yish o'quvchilarning kompetensiyalarini bosqichma-bosqich, izchil va shaffof baholashga imkon yaratadi. Kompetensiyalar monitoring tizimini o'quvchilar portfeli asosida tashkil etish nafaqat ta'lim jarayonining samaradorligini oshiradi, balki o'qituvchi faoliyatini optimallashtirish, pedagogik qarorlarni dalillarga tayangan holda qabul qilish, ta'lim mazmunini individuallashtirish hamda o'quvchilar yutuqlarini raqamli muhitda tizimli qayd etish imkonini beradi.

Hozirgi davrda ta'limning raqmlashtirilishi, baholash jarayonining shaffofligi va kompetensiyaviy yondashuv talablari portfel monitoring tizimini yanada takomillashtirishni dolzarb masalaga aylantirmoqda.

Adabiyotlar tahlili

1.Joriy (2020) – O'quvchilar portfelinin asosiy tushunchalari va pedagogik qiymati keltirilgan. Ta'lim jarayonida portfel orqali o'quvchilarning individual yutuqlari va qobiliyatlarini kuzatish usullari ko'rib chiqilgan. Ushbu manba ilmiy tadqiqot uchun nazariy asos beradi.

2.Karimov (2019) - Kompetensiya asosida ta'lim monitoringi metodologiyasini ta'riflaydi.

Portfel tizimi orqali o'quvchilar kompetensiyalarini baholash mexanizmi va indikatorlari batafsil ko'rsatilgan. Bu amaliy tadqiqotlar uchun foydali.

3. Islomova (2021) - Portfelning baholash tizimidagi o'rni, kriteriyalari va formatlari haqida ma'lumot beradi. O'quvchilarning yutuqlarini ko'rsatishda portfelni qanday ishlatish mumkinligi misollar bilan tushuntirilgan.

4.UNESCO (2018) – Xalqaro standartlar va kompetensiyalarni baholash tamoyillari.

O'zbek ta'lim tizimida xalqaro tajribani tatbiq etishda manba sifatida muhim.

5. Shukurov (2022) – O'quvchilar portfeli orqali malaka va kompetensiyalarni baholash metodlarini amaliy jihatdan ko'rsatadi. Bu manba tadqiqotning amaliy qismiga yo'naltirilgan.

6. OECD (2019) – XXI asr kompetensiyalarini baholash tamoyillari va indikatorlari, monitoring tizimlarini tashkil qilishda metodologik ko'rsatmalar beradi.

7. Tursunova (2020) – O'zbekiston maktablarida portfel tizimini joriy etish tajribasi, amaliy kuzatuvlar va natijalar orqali tadqiqotning lokal kontekstini ta'minlaydi.

Muhokama:

Mazkur dissertatsiya doirasida olib borilgan tadqiqot natijalari o'quvchilar portfeli asosida kompetensiyalar monitoring tizimini joriy etis ta'lim jarayonida baholash va rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirishga xizmat qilishini ko'rsatadi. Tadqiqot jarayonida to'plangan empirik ma'lumotlar portfel texnologiyasining kompetensiyaviy yondashuv talablariga mos kelishini tasdiqlaydi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, o'quvchilar portfeli o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini kompleks baholash imkonini beradi.

An'anaviy baholash tizimlaridan farqli ravishda, portfel asosidagi monitoring o'quvchilarning faqat yakuniy natijalarini emas balki, ularning rivojlanish dinamikasini, mustaqil ishlash qobiliyatini, refleksiya va ijodiy faoliyatini ham aniqlashga xizmat qiladi. Bu esa kompetensiyalarning shakllanish jarayonini uzluksiz kuzatish imkonini yaratadi. Shuningdek, tadqiqot natijalari portfel asosida monitoring olib borish o'quvchilarning o'z-o'zini baholash va o'z faoliyatini tahlil qilish kompetensiyalarini rivojlantirishini ko'rsatdi.

O'quvchilarning portfel bilan ishlash jarayonida o'z yutuq va kamchiliklarini anglashlari, shaxsiy rivojlanish yo'nalishlarini belgilashlari ta'lim jarayonida ularning faolligini oshirishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. O'qituvchilar faoliyati nuqtayi nazaridan, portfel asosidagi monitoring tizimi pedagoglar uchun tahliliy va diagnostik axborot manbai sifatida muhim ahamiyat kasb etadi. Portfel materiallari asosida o'qituvchilar ta'lim jarayonini individuallashtirish, o'quvchilarning ehtiyojlariga mos metod va texnologiyalarini tanlash imkoniyatiga ega bo'ladilar. Natijada ta'lim samaradorligi va sifat ko'rsatkichlari oshadi. Biroq tadqiqot davomida portfel asosida kompetensiyalar monitoring tizimini joriy etishda ayrim muammolar mavjudligi ham aniqlandi. Xususan, portfel yuritish jarayonining vaqt talab qilishi, baholash mezonlarining yetarli darajada standartlashtirilmaganligi hamda o'quvchilarning metodik tayyorgarlik darajasi monitoring samaradorligiga ma'lum darajada ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Ushbu muammolarni bartaraf etish uchun portfel tuzilmasini yagona me'yor asosida ishlab chiqish, aniq baholash indikatorlarini belgilash va pedagoglar uchun metodik qo'llanmalar yaratish zarur. Umuman olganda, tadqiqot natijalari o'quvchilar portfeli asosida kompetensiyalar monitoring tizimi ta'lim jarayonini modernizatsiya qilish, shaffof va uzluksiz bahlashni ta'minlash hamda o'quvchilarning kompetensiyaviy rivojlanishini samarali boshqarish imkonini beruvchi muhim pedagogik mexanizm ekanligini ko'rsatadi.

Xulosa

Mazkur dissertatsiya ishida o'quvchilar portfeli asosida kompetensiyalar monitoring tizimini tashkil etishning nazariy - metodik asoslari hamda amaliy mexanizmlari tadqiq etildi.

Olib borilgan ilmiy tahlillar va empirik kuzatuvlar mazkur monitoring tizimi zamonaviy ta'lim talablariga mos ravishda o'quvchilarning kompetensiyaviy rivojlanishini samarali baholash imkonini berishini ko'rsatdi.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, o'quvchilar portfeli ta'lim jarayonida baholashning shaffofligi va uzluksizligini ta'minlaydi. Portfel asosida monitoring olib borish orqali o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalari bilan birga, ularning mustaqil fikrlash, muammoli vaziyatlarni hal etis, refleksiya va ijodiy faoliyat kompetensiyalarining shakllanish darajasi saqlash mumkinligi isbotlandi.

Dissertatsiya doirasida aniqlanganki, portfel texnologiyasidan foydalanish o'quvchilarning o'z-o'zini baholash va o'z ta'lim faoliyatini tahlil qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi. Bu holat o'quvchini ta'lim jarayonining faol subyekti sifatida shakllantirishga xizmat qiladi hamda kompetensiyaviy yondashuvning asosiy tamoyillariga mos keladi. Tadqiqot davomida portfel asosida kompetensiyalar monitoring tizimi o'qituvchilar faoliyatini takomillashtirishda ham muhim ahamiyat kasb etishi aniqlandi. Xususan, monitoring natijalari pedagoglarga o'quvchilarning individual ehtiyojlarini aniqlash imkonini beradi. Natijada ta'lim samaradorligi va sifat ko'rsatkichlari oshadi. Shu bilan birga, tadqiqot natijalari portfel asosida monitoring tizimini joriy etishda metodik ta'minot, baholash mezonlarining standartlashtirilishi hamda o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligi muhim omil ekanligini ko'rsatadi. Ushbu yo'nalishda ishlab chiqilgan tavsiyalar amaliyotga tatbiq etilganda monitoring tizimining samaradorligi yanada ortadi.

Umuman olganda, dissertatsiya natijalari o'quvchilar portfeli asosida kompetensiyalar monitoring tizimi ta'lim sifatini oshirish, baholash jarayonini takomillashtirish hamda o'quvchilarning kompetensiyaviy rivojlanishini samarali boshqarish uchun muhim ilmiy – amaliy ahamiyatga ega ekanligini tasdiqlaydi.

Tavsiya va amaliy jihatlar

Tadqiqot natijalariga asoslanib, o'quvchilar portfeli asosida kompetensiyalar monitoring tizimini samarali joriy etish va rivojlantirish maqsadida quyidagi tavsiyalar ishlab chiqildi:

Ta'lim muassasalarida o'quvchilar portfelining yagona tuzilmasi va mazmuniy modelini ishlab chiqish hamda uni me'yoriy hujjatlar asosida joriy etish tavsiya etiladi. Bu baholash jarayonining shaffofligi va izchilligini ta'minlaydi. Kompetensiyalar monitoringini amalga oshirishda aniq baholash mezonlari va indikatorlar tizimini belgilash zarur. Har bir kompetensiya bo'yicha kutilayotgan natijalar bosqichma – bosqich aniqlanishi lozim. Portfel asosida monitoring tizimini raqimli platformalar orqali tashkil etish tavsiya etiladi. Bu ma'lumotlarni saqlash, tahlil qilish va natijalarni solishtirish jarayonini soddalashtiradi. O'qituvchilarning portfel texnologiyasi bo'yicha metodik va amaliy tayyorgarligini oshirish, maxsus seminar – treninglar tashkil muhim hisoblanadi. O'quvchilar va ota – onalarni portfel yuritish va monitoring jarayoniga faol jalb etish, ularning ta'lim natijalariga bo'lgan ma'suliyatini oshirishga xizmat qiladi.

O'quvchilar portfeli asosida kompetensiyalar monitoring tizimini amaliyotga joriy etish quyidagi yo'nalishlarda amalga oshiriladi:

Monitoring jarayoni bosqichma – bosqich taskil etilib, o'quvchilarning kompetensiyaviy rivojlanishi chorak, yarim yillik va yillik kesimda tahlil qilinadi.

Portfel materiallari asosida har bir o'quvchi uchun individual rivojlanish trayektoriyasi aniqlanadi va shaxsiy ta'lim y o'nalishi belgilanadi.

Monitoring jarayonida diagnostik, formativ va summativ baholash usullari uyg'unlashtirilib, o'quvchilarning rivojlanish dinamikasi aniqlanadi.

Portfel asosida olingan natijalar pedagogik faoliyatni rejalashtirish va takomillashtirishda, ta'lim metod va texnologiyalarini tanlashda amaliy ahamiyat kasb etadi.

Monitoring natijalari hisobotlar, tahliliy jadval va diagrammalar ko'rinishida rasmiylashtirilib, ta'lim sifati monitoringida va boshqaruv qarorlarini qabul qilishda foydalaniladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. **Joriy A (2020).** O'quvchilar portfeli va uning ta'lim jarayonidagi o'rni.
2. Tashkent: Ta'lim nashriyoti
3. **Karimov S (2019).** Kompetensiya asosida ta'limning monitoring tizimi.
4. Samarqand: Pedagogika nashriyoti.
5. **Islomova D (2021).** O'quv portfeli va baholash tizimlari.
6. Tashkent: Fan va ta'lim
7. **UNESCO (2018).** Education 2030: Framwork for monitoring learning autcomes. Paris: UNESCO Publishing.
8. **Shukurov R (2022).** O'quvchilarning shaxsiy portfeli orqali malaka va kompetensiyalarni baholash.
9. Tashkent: ilmiy nashr
10. **Brown J, Smith L (2017).** Portfolio Assessment in Education. Prinsiples and Practices. London: Routledge.
11. **OECD (2019).** Assessing Competencies in the 21 st Century. Paris OECD Publishing.
12. **Tursunova M (2020).** O'zbekiston maktablarida kompetensiyalar monitoring amaliy tajriba. Tashkent: Pedagogika nashriyoti.
13. **muzaffarovazebiniso050@gmail.com**